

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANISHIDA IQTISODIYOTNI O’RNI

Ilmiy rahbar: Agrologistika va biznes fakulteti Agroiqtisodiyot kafedrasи, iqtisodiyot fanlari nomzodi dotsent Ashurmetova Nigora Ozodbekovna Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes fakulteti iqtisodiyot yo‘nalishi 23-132 inter Muhammadaminov Sarvar Nodirbek o‘g‘li.

Anotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bu sohani rivojlanadirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarga ham to‘htalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi.

Annotation: This article examines the role of the agricultural industry in the economy of our country. The decisions taken by the President on the development of this sector were also discussed.

Key words: development of agriculture, farming, animal husbandry, agriculture. development of agriculture, farming, animal husbandry, agriculture.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль агропромышленного комплекса в экономике нашей страны. Обсуждались также принятые Президентом решения по развитию этой отрасли.

Ключевые слова: развитие сельского хозяйства, земледелия, животноводства, земледелия.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasining Mamlakatimiz yalpi ichki mahsotida ham salmoqli o‘rin egallagan. Mamlakat YaIM umumiy hajmining 26-30 % shu tarmoqning ulushiga tog‘ri keladi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarmidan ko‘prog‘I shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Aholining yarmidan ko‘proq qismi qishloqlarda yashaydi. Xalqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismini ish bilan ta’minlashi qishloq xo‘jaligi bilan bo‘gliq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo‘lgan mehnat resurslarining 28% dan ko‘prog‘I qishloq va o‘rmon xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli ham qishloq xo‘jaligi sohasiga bo‘lgan e’tibor keying yillarda katta bo‘lmoqda O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qulay xududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy iqlim sharoiti yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperature 26-30° ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo‘lib, bir yilda bir necha marta hosil olish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar

natijsasida O‘zbekiston Respublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo‘ldi.Qishloq xo‘jaligi Respublika iqtisodiyotining yirik va muhim tarmog‘I sifatida saqlanib qoldi.Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston xalqlarining eng qadimdan shug‘illangan asosiy sohalaridan biri bo‘lib, bir necha ming yilliklardan asta sekin rivoj topib kelmoqda.Respublika hududida avvalo chorvachilik keyinchalik dehqonchilik madaniyati tarkib topdi.Qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni keying yillarda keskin rivojlanib bormoqda.Qishloq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib aholiga oziq ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyoning asosiy qismini yetkazib beradi.Bugungi kunda mamlakat yengil va to‘qimachilik sanoatida ishlatilayotgan tolanning 60%daan ortig‘rog‘i o‘zimizda ishlab chiqarilgan paxta tolasidir.

Huquqshunoslar Umida Haqnazar va Ilhom Azizov, iqtisodchi Yuliy Yusupov O‘zbekistonda agrar islohotlarni tahlil qiluvchi maqolani nashr qilishdi. Mutaxassislar materialda yer munosabatlari, yer uchastkalarini ajratishda shaffoflik va davlat buyurtmalarini olish borasida go‘yoki yechim topilmagan masalalarga ishora qilishmoqda. Bunga javoban Innovatsion rivojlanish vazirligining Hududlarni innovatsion rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Fazliddin Mo‘minov qishloq xo‘jaligini isloq qilishda erishilgan yutuqlar haqida ma’lumot berdi. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekistonda asosiy iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. U YaIMning qariyb 27 foizini egallaydi, mamlakatdagi jami aholining 30 foizdan ortig‘ini ish bilan ta’minkaydi, qashshoqlikni kamaytirishga hissa qo‘sadi. Bugungi kunga qadar qishloq xo‘jaligida 20 million gektardan ortiq yer, jumladan, 3,2 million gektar sug‘oriladigan ekin maydonlarida aholi ehtiyojlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda. 2017 yilda klaster tizimining paydo bo‘lishi tufayli qishloq xo‘jaligi yanada rivojana boshladi. Bu tizim endigina yo‘lga qo‘yilmoqda, zanjirning ayrim bo‘g‘inlarida muammolar mavjud, ammo uni yanada takomillashtirish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi. 2019 yilda Qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur Strategiya 2030 yilgacha 1,0 million gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi yerlarini o‘zlashtirish, 535,0 ming gektardan ortiq lalmi, yaylov va boshqa yerlardan samarali foydalanishni ta’minalash; tarmoqda band bo‘lgan har bir kishiga o‘rtacha mehnat unumdarligining 1,7 barobar yoki yiliga 6,5 ming dollargacha o‘sishini ta’minalash; qayta ishlangan tayyor mahsulotlar hajmini 30 foizgacha oshirish; mahsulot eksportini 20 milliard dollargacha oshirishni nazarda tutadi.

2017–2021 yillarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 6,8 foizga o‘sdi. Ushbu davrda ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati taxminan 1,7 foizni tashkil etdi. 2017-2021 yillarda qishloq xo‘jaligining har bir band kishiga to‘g‘ri keladigan qo‘silgan qiymati 7,0 foizga oshib, 2019 yildagi o‘rtacha jahon ko‘rsatkichidan 60

foizga oshdi. 2020-2021 yillarda kvotalar va narxlarni nazorat qilishning bekor qilinishi ekinlarni diversifikatsiya qilish, boshqa ekinlar, meva va sabzavotlar yetishtirishga bosqichma-bosqich o‘tishga yordam bermoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti respublika tashqi daromadining 10 foizdan ortig‘ini tashkil qilmoqda.

O‘zbekistonda 2019 yil 15 oktyabrdan boshlab un narxini davlat tomonidan tartibga solish to‘xtatildi. 2020 yil hosilidan boshlab davlatning g‘allaga buyurtmasi 25 foizga qisqartirildi, 2021 yil hosilidan esa davlat tomonidan g‘alla xarid narxlarini belgilash amaliyoti butunlay bekor qilindi. 2020 yil hosilidan paxta xomashyosining xarid narxlarini belgilash amaliyoti bekor qilindi va paxtani erkin joylashtirish huquqi berildi.

Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni joriy etish hisobiga meva-sabzavot, kartoshka, dukkakli va yog‘li o‘simgiliklar ishlab chiqarish hajmi yiliga 6-8 foizga, go‘sht 16 foizga, sut 13 foizga, tuxum 27 foizga, baliq yetishtirish hajmi 2 marotabaga, asal 30 foizga ortadi. Meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 15 foizga, go‘sht 9 foizdan 15 foizga, sut 14 foizdan 18 foizga yetkaziladi. Bunday tartibning o‘rnatalishi yer unumdorligi va yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga, jumladan, almashlab ekishni ta’minlashga qaratilgan samarali usul va texnologiyalardan foydalanishga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholi zinchligi bo‘yicha O‘zbekiston birinchi o‘rinda – 1 kv.km.ga 51,4 kishi to‘g‘ri keladi. Har gektar sug‘oriladigan yerga respublika aholisining 8 nafari to‘g‘ri keladi. Aholining o‘sish sur’ati sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘sish sur’atlaridan ancha yuqori. Shuning uchun so‘nggi 30 yil ichida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yerlar maydoni, ya’ni aholining o‘sishi hisobiga 0,23 gektardan 0,16 gektargacha, qariyb 25 foizga kamaydi. Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, agar hozirgi tendensiyalar davom etsa, keyingi 30 yil ichida sug‘oriladigan maydonlar yana 20-25 foizga qisqaradi.

Har qanday milliy iqtisodiyot uchun mamlakatda iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash asosiy makroiqtisodiy vazifalardan biridir. Barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o‘sish barcha uchun munosib ish o‘rinlari yaratish, taraqqiyot va nihoyat, hayot sifatini oshirishga imkon berishi mumkin. Shuning uchun mazkur maqolada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilingan. Empirik nazariy usullardan foydalanib, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida qishloq xo‘jaligida iqtisodiy o‘sishni aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichlar aniqlangan va tizimlashtirilgan. Statistik ko‘rsatkichlar makro, mezo (alohida tarmoq) va mikro (korxonalar) darajasida guruhlangan. Dispersion tahlil asosida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining barqarorlik darajasini baholash natijasida bir qator ko‘rsatkichlarda yuqori beqarorlik darajasi aniqlangan. Shuningdek, qiyosiy tahlil davomida xususiy ko‘rsatkichlar va xalqaro

ko‘rsatkichlar solishtirilgan hamda o‘xshashliklar aniqlangan. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtirib, agrar sohada barqaror iqtisodiy o‘sish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/download/1014/1948/988>
2. <https://staff.tiame.uz/storage/users/36/books/Y21Njjagx31DHIO2wLecsmkDycehirR31IymJ45j.pdf>
3. <https://kun.uz/news/2022/07/16/qishloq-xojaligi-ozbekiston-iqtisodiyoti-uchun-osish-nuqtasidir?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F07%2F16%2Fqishloq-xojaligi-ozbekiston-iqtisodiyoti-uchun-osish-nuqtasidir>
4. <https://kun.uz/news/2022/07/16/qishloq-xojaligi-ozbekiston-iqtisodiyoti-uchun-osish-nuqtasidir?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F07%2F16%2Fqishloq-xojaligi-ozbekiston-iqtisodiyoti-uchun-osish-nuqtasidir>